

O'ZBEK TILIDA LEKSEMANING IFODA VA MAZMUN PLANI

Abdumurodova Munira Abdusaid qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

abdisaitchoriyev@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada leksemaning ifoda, ma'no va mazmun jihatlari, tilda so'zlarning bir yoki bir necha ma'noga ega bo'lishi, so'z ma'nolarining o'zgarishi bilan bog'liq hodisadir yoritilgan.*

Kalit so'zlar. *leksikologiya, ko'p ma'noli so'zlar, leksemaning mazmun jihati*

Leksema so'zning grammatik ma'no bildiruvchi qo'shimchalarsiz qismi; tilning lug'at tarkibiga xos birlik. Leksema atamasi adabiy tilning lug'at tarkibi ma'nosida ham, biror sheva so'zlari (Toshkent shevasi), biror kasb-hunar (kashtado'zlik yoki bog'dorchilik), ayrim shoir yoki yozuvchi asarlari (G'.G'ulom) leksikasi ma'nosida ham ishlatilaveradi. Leksikologiya so'zlarni ichki va tashqi tomondan tekshirish xususiyatiga ko'ra bir qancha sohalarga bo'linadi.

1. Semasiologiya — grekcha (semasia) belgi, tamg'a (logos) ta'limot tushunchalarini bildiradi. U so'z va iboralarning ma'no xususiyatlarini tekshiradi. Masalan, paxta so'zi oq rangdagi yumshoq predmet, texnika o'simligining bir turi ma'nosini bildiradi. Bu esa shu so'zning asosiy belgisidir.

2. Etimologiya — grekcha (etymon) haqiqat va (logos) ta'limot demakdir. So'zning kelib chiqishi, ularning fonetik va semantik tuzilishida davrlar o'tishi bilan qanday o'zgarishlar yuz berganligi, qaysi tilga oid so'z ekanligini tekshiradi. Masalan, daromad so'zi tojikcha dar-eshik, omadan-kelmoq, ya'ni biror faoliyat natijasida paydo bo'lgan mablag' nazarda tutiladi. Yana misol sifatida sarpo so'zini ham oladigan bo'lsak, bu ham fors-tojik tilidan olingan bo'lib, sar-bosh va po-oyoq so'zlaridan yasalganini hisobga olsak, boshdan to oyoqqacha (asosan, to'y arafasida kelin-kuyovga) atab olinadigan kiyimlar jamlanmasi.

3. Onomosiyalogiya — grekcha (anoma) nom, (logos) ta'limot degan ma'noni anglatadi va hozirgi o'zbek tilshunosligimizda nomshunoslik haqidagi soha hisoblanadi.

Bu ta'limot, asosan, atoqli otlarni tekshiradi. Masalan, "Oqtepa" mahallasi oq rangli tepalik bo'lganligi uchun bo'lsa, Juma (juma kunida) tug'ilgan bolaga shunday nom atab qo'yiladi.

Leksema bu so'z demakdir. Tilda so'zlarning bir yoki bir necha ma'noga ega bo'lishi so'z ma'nolarining o'zgarishi bilan bog'liq hodisadir. Chunki kishilar o'zaro so'zlashuv, aloqa qilish jarayonida bir so'zni bir necha ma'noda qo'llaydilar. Shuning natijasida ko'p ma'noli so'zlar paydo bo'ladi. So'zning qanday ma'no bildirishi gap ichida aniq anglashiladi. Boshqacha aytganda, so'z alohida olinganda bir xil ma'noni, gap ichida boshqacha ma'noni anglatishi mumkin.

Bosh va yasama ma'nolar sababli birdan ortiq ma'noga ega bo'lgan so'zlar ko'p ma'noli (polistmantik) so'zlar deyiladi. Alohida olinganda yoki gap ichida ham qaysi ma'nofa ishlatilsa, shu ma'no uning bosh ma'nosi sanaladi.

Qolgan ma'nolar esa yasama ma'nolar deyiladi. Yasama ma'nolar gapda ma'lum bir nutqiy sharoitda yuzaga keladi.

O'zbek tilidagi ko'pchilik so'zlar ma'nolidir. Masalan, bosh so'zining o'z ma'nosi — kalla gavdaning bosh qismidir. Ammo bu so'z turli so'z birikmalariga turlicha ma'no ifodalaydi; bosh masala; bosh ko'tarmoq — qo'zG'almoq, harakatga kelmoq, bosh yo'l — asosiy yo'l, bosh tegirmon — birinchi yoki yuqorida joylashgan tegirmon; bosh qo'shmoq — birikmoq, bosh egmoq — bo'ysinmoq, bosh farzand — birinchi yoki katta farzand, bosh bo'lmoq — rahnamolik qilmoq, bosh-boshiga, o'z-o'ziga kabi ma'nolarni anglatadi.

O'zbek tilida so'z ma'noli 3 xil usul bilan ko'chadi:

Metafora gr. *metaphora* "ko'chirma" demakdir. So'z ma'nolarining predmet, narsa, hodisalarning tashqi shakliy o'xshashligi va belgiga asoslanib ko'chishiga metafora deyiladi. Masalan, qozonning qulog'i odam qulog'iga, o'zining tashqi belgisi ko'rinishi bilan o'xshaydi. Metaforaga misol sifatida quyidagi birikmalarni keltirishimiz mumkin: ariqning etagi, daryo yoqasi, buloqning ko'zi, daftarning yuzi, stulning oyoG'i, samolyot qanoti, she'riyatning pichog'i.

Metonimiya gr. "meta" qayta, "anoma"-nom demakdir. Predmeti, narsa, hodisalarning makon va zamondagi bog'lanishidan birining nomini ikkinchisiga ko'chirish asosida yuzaga keladigan ma'no metonimiya deyiladi. Bu usul bilan nom ko'chishda tashqi, ichki belgidagi o'xshashlik hisobga olinmaydi, balki ular orasidagi doimiy aloqaning mavjudligi hisobga olinadi, shunga ko'ra quyidagi ma'nolarni ifodalaydi;

1. o'rin munosabati (ko'za, piyola, samovar) masalan, to'ldirib qo'y qadahlarini, yangrasin gulyor (qo'shiq);

2. joy, tashkilot so'zidagi doimiy aloqaga ko'ra (shahar, tashkilot):

Samarqandga borib keldim.

3. muallif bilan asari orasidagi doimiy aloqa:

Fuzuliyini oldim qo'limga

Majnun bo'lib yiG'lab qichqirdi. (Hamid Olimjon)

4. Boshqa hodisalar bilan uzviy aloqa asosida ko'chadi:

Bugun o'n to'qqizga chiqasan-a?

Sinekdoxa grekcha "sinekdohe" birga anglamoq demakdir. Butun nomi bilan qismni yoki, aksincha, qism nomi bilan butunni ifodalash asosida so'z ma'nolarining ko'chishi sinekdoxa deyiladi.

Sinekdoxaga quyidagi munosabatlarga asoslanadi:

1. Odam a'zolari: Qo'lingga uzuk taqishdimi? Besh qo'l barabar emas.

2. Kiyim va uning qismlari: hisobidan adashgan cho'ntagidan ayrilar. (Maqol.)

3. Predmet, narsa, qurol: xamir uchidan patir, o'roq-o'roqchi

4. Hayvon, parranda a'zolari: chorva tuyoqlarini ko'paytiramiz (gazetadan)

5. Daraxt va mevasi: Namanganning olmasi hil-hil pishibdi.

Leksemaning mazmun jihati

1. Leksemaning miyaning til xotirasi qismidagi ramzida (ifoda jihati haqidagi axborot ham bo'ladi). Leksemaning mazmun jihatida ikki hodisa farqlanadi: 1) ma'lum bir voqelikni nomlashi (nominativ vazifa bajarishi; lot. Nominatio — "nom"), 2. ma'lum bir ma'noni anglatishi (signification vazifa bajarilishi; lot. Signifikatio — "ma'no", "farq") Leksema, avvalo, voqelikni nomlash uchun yaratiladi, keyin unga ma'lum mazmun birlashtiriladi. Masalan, qosh leksemasi kishi tana a'zolaridan birining nomi bo'lib, uning bosh ma'nosi "qovoq ustini qoplab turadigan zich o'siq tuklar" deb ta'riflanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. S. Rahimov, B. Umurqulov hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. T. , " Moliya" nashriyoti. 2003.

2. O'zbek tilining izohli lug'ati: 5 jildni, 80 000 dan ortiq so'z A.Madvaliyev tahriri ostida. -Toshkent. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

3. Sayfullayeva R.R ; Mengliyev B.R ; Boqiyeva G.H; Qubonova M.M; Yunusova Z.Q Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – T. Fan va texnologiya “, 2009.

4. B.Mengliyev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Tafakkur bo'stoni. 2018.

5. www.ziyouz.com

6. www.arxiv.uz